

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

e’tiborimizni qaratdik, biroq ayni millatning madaniyati ham zamon o’zgargani sayin turlanib ketaveradi. Xususan, Zebi obraziga biriktirilgan xarakterlar bugungi kundagi ba’zi qizlar uchun tamoman begona. Bunga ham davrni sabab qilib olishimiz darkor.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o’tishimiz joizki, madaniyat har bir mustaqil shaxs, balki mamlakatning yuzi hisoblanadi. Va bu tushuncha bir kishi tomonidan o’zgartirilib boriladigan jarayon ham emasligini hisobga olsak, barchamiz o’z tarixiy an’analарimizni yo’qotmagan holatda madaniyatimizni ham sof asrab qolishimiz kerak. Bugun bizning kishilar bilan muloqotimiz va atrof-muhitga bo’lgan munosabatimiz erta kelajak avlodning o’zlashtiradigan madaniyatiga poydevor bo’ladi. Bu esa bizga mas’uliyat yuklashi lozim va e’tiborsizlik o’zimizga qilgan yomonligimiz bo’lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Q. Nazarov, «Falsafa qomusiy lug‘at», «Sharq» nashriyoti, T.: 2004 – 230 b.
2. Mansur Bekmurodov, Nargiza Yusupova, «Madaniyat sotsilogiyasi», «Yangi nashr» nashriyoti, Toshkent.: 2010 – 144 b.
3. Абдулла Кодирый, «Мехробдан чайон», «Адабийот ва санъат» нашрийоти, Тошкент: 1994 – 149 б.
4. Чулпон, «Кеча ва кундуз», «Шарк», Тошкент: 2000 – 287 б.
5. Pardayev S. Sh. Madaniyat tili etnomadaniy tafakkur ifodasining shakli sifatida (lingvo-pragmatik tahlil): filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2024 – 15 b

TALABA YOSHLARNING IJTIMOIIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DAVR TALABI

G’ulomova Rayhona O ‘tkir qizi

Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy kompetentlik uning mazmun, mohiyati. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim jihatlari va ijtimoiy kompetentlikka qo ‘yilgan davr talablari yoritilgan.

Kalit so ‘zlar: ijtimoiy kompetentlik, kompetensiya, kasbiy faoliyat, shaxsiy qobiliyat, intellektual salohiyat, ma ‘naviy kamolot, kasbiy fazilatlar.

Аннотация: В данной статье социальная компетентность является ее содержанием, сущностью. Выделены важность развития социальной компетентности у молодежи и периоды социальной компетентности.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Ключевые слова: Социальная компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, личностные способности, интеллектуальный потенциал, духовная зрелость, профессиональные качества.

Annotation: In this article, social competence is its content essence. The importance of developing social competence in young people and the periods of social competence are highlighted.

Keywords: social competence, competence, professional activity, personal ability, intellectual potential, spiritual maturity, professional qualities.

Bugungi kunda talabalarning ijtimoiy jihatdan rivojlantirish va ularni jamiyat bilan integratsiya jarayoni eng muhim vazifa sanaladi. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlik talabalar hayotida eng dolzarb tushuncha hisoblanibgina qolmay, hozirda kompetentlik bo'yicha ko'plab ilg'or fikrlar talabalarning jamiyatga kirishuviga muhim o'rin egallamoqda. Bundan tashqari, kompetensiya tushunchasiga izoh berar ekanman, S.N. Krasnokutskayaning fikri o'rinli deb bilaman: Ijtimoiy kompetensiya shaxs ijtimoiylashuvining ajralmas qismi bo'lib, bu ijtimoiy rollarning o'zgarishiga dosh bera oladigan shaxsning boshqalar bilan hamkorlik qilish, aloqalar o'rnatish, oson moslashuv, o'zgarishga tayyorlik, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z harakatlarining oqibatlari uchun ijtimoiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyatini ko'zda tutadi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivoji oliy ta'lim muassasasi bilan bog'liq hisoblanib, shuni aytish joizki, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari talabalarni shaxsiy qobiliyatidan kelib chiqqan holda, ularni ma'naviy- ma'rifiy ishlarga jalb qilish, so'ngra ongiga vatanparvarlik, bag'rikenglik va mehr- muhabbat tushunchalarini singdirish, jamiyat bilan ishlash tartibi, o'z o'rnini topa bilishni qay yo'sinda amalga oshirishni o'z tajribalaridan xulosa qilgan holatda amalga oshirishlari mumkin deb o'ylayman. Shu o'rinda N.Y. Rajinovning ijtimoiy kompetensiyaning asosiy ko'rsatkichi, assertivlik, ya'ni shaxsning o'ziga ishonchi (ishonchsizligi) ekanligi to'g'risidagi fikri diqqatga sazovor, deb bilamiz. Negaki o'qituvchi talabani ijtimoiy jihatdan yo'naltirsa ham ammo talabani o'ziga nisbatan ishonchsizligi mavjud bo'lsa hech qachon kompetentlik yuqori darajaga ko'tarilmaydi. Kompetentlik shunday tushunchaki, talaba o'zidagi qobiliyatni chiqara olishi ya'ni ommaga namoyish qila olishi muhim. Sababi, qobiliyatlar ko'rsatilmaganligi va ularni sayqallanmaganligi uchun insondagi ichki muvaffaqiyatga erishuv istagi va muloqotga kirishuvchanlik hissi so'nib boradi. Shundan kelib chiqadiki, qobiliyatlardan tashqari tushuntira bilish, tushunish, hissiy idrok qilish va tahlil qilish kabi shaxsiy fazilatlar eng oliy o'rinda turadi.

Buyuk rus pedagogi Y.A. Komenskiy “Eshitsam unutamani, ko'rsam eslab qolaman, bajarsam anglab yetaman” deb bejiz ta'kidlamagan. Ayniqsa bo'lajak pedagoglarni shu fikrga nisbatan obyekt deb hisoblasak, pedagog ham ta'lim berishi, ham boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bo'lajak pedagog bo'lmoqchi

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

bo ‘lgan talaba yoshlar ushbu qobiliyatlarni amaliyotda ko ‘rsatib berishi muhim. Sababi, amaliy jihatdan yuksalish ijtimoiy kompetentlikni yuqori cho ‘qqiga ko ‘taralishiga yordam beradi. Chunki, talabalar amaliyotda o ‘zining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, ma’naviy jihatdan rivojlanganligini, intellektual salohiyatini ochib beradi. Bu holat ularning jamiyatga qanday o ‘zini tutishini, o ‘z bilimini qanday usulda yetkaza olishini, o ‘ziga nisbatan baho bera olishini ya’ni xatolari bo ‘lsa tuzata olishi, muvaffaqiyatlari bo ‘lsa yanada rivojlantirishi mumkinligini anglatadi.

Kompetensiya mutaxassislarni , yangi ilmlarni o ‘rganishni, xorij tajribalardan foydalanishni , bilimlarini yanada boyitib borishni, ijtimoiy hodisalarni tahlil qila olishni, yangiliklar yaratishni va ularni o ‘z ish faoliyatida qo ‘llay bilishni taqozo etadi.

Hozirgi jadallashgan zamonda axborot vositalari rivojlanib yoshlarga ta’sir qilmasdan qolmaydi. Ya’ni axborotni olishning turli xil usullari chiqib ketganligi, ularni yetkazib berishda turli xil yot g ‘oyalarning mavjudligi ushbu sohani mukammal o ‘rganishni talab etadi. Shu sababli ham yot g ‘oyalarni targ ‘ib qilmaslik va o ‘rganmaslik uchun oliy ta’lim muassasasi o ‘z kadrlarini kasbiy mahoratini oshiribgina qolmay, ularning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishni ham ko ‘zga tutishi lozim. Bunday davr talabi bo ‘lgan muammolarni hal qilish OTM ning nufuzini yanada ortishiga va keng fikrlovchi kadrlar yetkazib berishiga imkon beradi.

Shuni aytib o ‘tish kerakki, ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishni talabalar o ‘qishgan kirganidan to tugatguniga qadar amalga oshirishi kerak. Negaki, ayni shu davrda ko ‘plab mutaxassislar qurshovida va tengdoshlarida orasida talaba yetuklikka erisha oladi.

Ijtimoiy kompetentlik bo ‘yicha xorij tajribasini ko ‘rib o ‘tadigan bo ‘lsak, Finlyandiya tajribasi ko ‘zga tashlanarli deb bilaman. Ta’lim bo ‘yicha ekspert , Finlyandiyaning ta’lim sohasidagi islohotlariga bag ‘ishlangan “Finnish Lessons” kitobi muallifi Pasi Salbergning yozishicha, Finlyandiyada o ‘qituvchilarni “qamchi va shirinlik” tamoyili asosida harakatga keltirishga intilish yo ‘q, aksincha, ularga katta erkinlik beriladi. O ‘qituvchilar o ‘z o ‘quvchilarini baholab borishlari, ularning kelib ketishi haqida ma’lumot berishlari lozim, ammo , ayni bir ma’noda ularning nazdida o ‘quvchilarga qulay bo ‘lgan o ‘z rejalarini ham ishlab chiqishlari mumkin. Jahon bankining qayd qilishicha, bu tizim o ‘zaro ishonch asosida qurilgan. Nega aynan bu fikrlarni keltirib o ‘tganimga izoh bermoqchiman, chunki ushbu erkinlarni berish orqali ham o ‘qituvchilarni kompetentligini, balki o ‘quvchilarni ham ilk boshdanoq ijtimoiy kompetentligini, ko ‘nikmalarini, malakalarini oshishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Ijtimoiy kompetentlik ayni bir ma’noda muloqotga kirishimli bo ‘lmoqlikni,, jamiyatga o ‘z manfaati tegishini, odamlar o ‘rtasida o ‘zaro munosabatlar o ‘rnatishda ilg ‘or bo ‘lishlikni, o ‘zidagi bor qobiliyatlarni saqlab qolish va ularni rivojlantirishni, yanada yangi sohalarda o ‘z qirrasini namoyon qila olishni anglatadi. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlik ayni bir shaxsga xos bo ‘lgan alohida qobiliyat emas, balki yillar davomida orttirilgan mehnatlar samarasidir. Har qanday barkamol shaxs kompetentlik g ‘oyasini ilk ondayoq o ‘z hayotida muhim omil deb bilishi lozim. Sababi, davr talabiga aylangan ijtimoiy

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

kompetentlik insonning o‘zligini anglashga, to‘g‘ri qaror qabul qila olishga, hayot darajasini yuksalishiga, ta‘lim va tarbiyasiga yuqori darajada ta‘sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. U.G ‘. Sobirov “Yunogogika “ o‘quv qo‘llanma” (1-qism).- Buxoro ”Bukhara hamd print” nashriyoti, 2023 yil.- 91,94,96-bet.
2. <https://www.gazeta.uz>
3. Yusupov.M.M.-"Shaxs psixologiyasi"
4. Leontyev,A.N.-"Faoliyat,ong va shaxs"
5. Xayitboyeva,G.X-"Ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari.
6. w.w.w.casel.org

МЕТОДИКА УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ИННОВАЦИИ.

Ашурова Ирода

студентка первого курса- кафедры Языка и литературы Шахрисабзского государственного педагогического института по направлению родной язык и литература(русский).

Аннотация. В статье рассматриваются современные подходы к формированию и развитию коммуникативных способностей у детей дошкольного возраста. Основное внимание уделено инновационным методикам и технологиям, позволяющим эффективно развивать речевые и социальные навыки у дошкольников. Обоснована необходимость интеграции игровых, цифровых и интерактивных методов в образовательный процесс. Представлены рекомендации для педагогов по практическому применению инноваций в работе с детьми.

Ключевые слова: коммуникативные способности, дошкольное образование, инновационные технологии, проектный подход, педагогическая методика, взаимодействие.

Abstract: The article examines modern approaches to the formation and development of communicative abilities in preschool children. Particular attention is given to innovative methods and technologies that effectively foster speech and social skills in young learners. The necessity of integrating play-based, digital, and interactive methods into the educational process is substantiated. Practical recommendations are provided for educators on the implementation of innovations in working with children.